

SCEEP/OCB-G13 xarid paketi bo'yicha ochiq tender tanlovi: "Ilgakli yuklagichlar (multilift) va mobil zichlov konteynerlarini xarid qilish".

Sana: **2025-yil 21-mart**

Kredit raqami va nomi: L3903-UZB: "Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish" loyihasi.
Shartnoma raqami va nomi: № SCEEP/OCB-G13: "Ilgakli yuklagichlar (multilift) va mobil zichlov konteynerlarini xarid qilish".

Ariza topshirishning oxirgi muddati: **2025-yil 2-may, 15:00 (Toshkent vaqti bilan)**

1. O'zbekiston Respublikasi Osiyo taraqqiyot bankidan (OTB) "Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish" loyihasini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun moliyalashtirdi va ushbu moliyalashtirish mablag'larining bir qismini yuqoridagi shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga yo'naltirmoqchi. Tenderda faqat OTBga a'zo davlatlar qatnashishi mumkin.
2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ("Buyurtmachi") OTBga a'zo bo'lgan mamlakatlardan muhrlangan tanlov takliflarini taqdim etishga taklif qiladi:
 - Ilgakli yuklagichlar (multilift) – 30 dona;
 - Mobil zichlov konteynerlari – 100 dona;Mahsulot birligiga taklif berishga yo'l qo'yilmaydi va bunday taklif rad etiladi.
3. Ochiq tanlov savdosi OTBning "Bitta bosqich – bitta konvert" tartibiga muvofiq amalga oshiriladi va tender hujjatida ko'rsatilganidek, tegishli mamlakatlarning barcha ishtirokchilari uchun ochiq bo'ladi.
4. Ushbu tenderda faqat quyidagi asosiy malakaga ega bo'lgan talabgorlar qatnashishi mumkin:

4.1 Xuddi shunday miqdor va profildagi yetkazib berish tajribasi

Tender ishtirokchisi so'nggi **besh yil** ichida (**2020–2024 yy.**) asosiy yetkazib beruvchi sifatida har biri **3,6 million AQSh dollaridan kam bo'lmagan kamida ikki (2) ta shartnomani** muvaffaqiyatli yakunlaganligini namoyish etishi lozim. Ushbu shartnomalarning mohiyati va murakkabligi 6-bo'limda (Yetkazib berish jadvali) bayon etilgan yetkazib berish hajmiga o'xshash bo'lishi kerak.

4.2 Tarixiy moliyaviy natijalar

Savdo ishtirokchisi **so'nggi uch yil (2021-2023)** uchun tekshirilgan yillik moliyaviy hisobotlar (balans, daromadlar to'g'risidagi hisobot) orqali uzoq muddatli rentabellikni ko'rsatish orqali o'z moliyaviy ahvolining mustahkamligini ko'rsatishi kerak.

4.2 O'rtacha yillik tovar aylanmasi

Minimal yillik o'rtacha aylanma **6,75 million AQSh dollarini** tashkil etishi lozim. Bu ko'rsatkich **so'nggi uch yil (2021–2023 yy.)** davomida ishtirokchi tomonidan yakunlangan yoki hozirda bajarilayotgan shartnomalar bo'yicha olingan umumiy to'lovlar summasi sifatida aniqlanadi.

5. Ishtirokchi tender taklifi garovi sifatida **45 000,00 AQSh dollari** taqdim etishi shart.
6. Qo'shimcha ma'lumot olish va tender hujjatlarini topshirish uchun ishtirokchilar quyidagi manzilga murojaat qilishlari kerak:

"Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish" loyihalarni boshqarish guruhi davlat muassasasi
Akmal Hikmatullaev, Loyihalarni boshqarish guruhi rahbari v.v.b.

Manzil: 100043, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7A
Mamlakat: O'zbekiston Respublikasi
Tel.: +998 99 855 55 40
+998 97 758 74 34
Elektron pochta: sswm@sanitation.uz

7. Tender hujjatlarini sotib olish uchun talabgorlar:

- № SCEEP/OCB-G13 paketi bo'yicha tender hujjatlarini taqdim etishni so'rab yuqoridagi manzilga xat yozing: **Ilgakli yuklagichlar va mobil zichlov konteynerlarini xarid qilish.**
- (a) 100 AQSh dollari yoki (b) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to'lov amalga oshirilgan kundagi kursiga muvofiq ushbu summaga teng bo'lgan so'mni quyida keltirilgan Loyihalarni boshqarish guruhi bank hisob raqamlariga qaytarib berilmaydigan to'lov sifatida o'tkazishi lo'zim:

AQSh dollaridagi hisob raqam:

“Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish” loyihalarni boshqarish guruhi davlat muassasasi

Manzil: 100043, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7A

O'zbekiston Respublikasi

Bank nomi: ATB “Ipoteka-bank”

Bank manzili: 30, st. Shahrisabz, 100000, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

Hisob raqami: **2021 2840 7053 8734 7002** INN: **308 296 948**

SWIFT kodi: UZHOUZ22

Korrespondent bank: JPMorgan Chase

Hisob raqami: 0011017803

SWIFT kodi: CHASUS33

O'zbek so'midagi hisob raqam:

“Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish” loyihalarni boshqarish guruhi davlat muassasasi

Manzil: 100043 - Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7A

O'zbekiston Respublikasi

Bank nomi: ATB “Ipoteka-bank”

Bank manzili: 30, st. Shahrisabz, 100000, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

Hisob raqami: **2021 2000 9053 8734 7002** INN: **308 296 948**

Bank kodi: 00419

Shuningdek, tender hujjatlari xorijga va mahalliy yetkazib berish uchun 50 AQSh dollari miqdorida qo'shimcha to'lov evaziga havo pochta orqali hamda yer usti pochta yoki kuryer orqali yuborilishi mumkin. Yo'qotilgan yoki kechikib yuborilganlik uchun hech qanday javobgarlik bo'lmaydi.

8. Taklifingizni yuborish :

- 5-bandda ko'rsatilgan manzilda;
- belgilangan muddatda yoki undan oldin: **2025-yil 2-may**, soat 15:00 (Toshkent vaqti bilan);
- tender hujjatlarida ko'rsatilgan taklif ta'minoti (bank kafolati) summasi bilan birga.

Takliflarni ochish vaqti: **2025-yil 2-may**, 15:15 (Toshkent vaqti bilan)

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, 4-qavatdagi majlislar zali
O‘zbekiston Respublikasi, 100043, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko‘chasi, 7A.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tender ishtirokchilari tomonidan takliflarni tayyorlash yoki yetkazib berish bilan bog‘liq har qanday xarajatlar uchun javobgar emas.